

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.R.To'xtasinov, M.P.Azimova

Kartoshka ildizi va uning atrofi tuproqlarida uchraydigan fitonematodalar sistematik tahlili va turlar xilma-xilligi 103

I.I.Zokirov, A.A.Yoqubov

Kuzgi tunlamning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri va O'zbekistonda samarali kurash choralar 106

B.A.Abduvealiyev, I.I.Zokirov

Gelmintlarning uy parrandalari bilan biotsenotik aloqalari 109

T.K.Ortikov, U.B.Shodmonov

Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi va unga turli omillarning ta'siri 115

A.A.Ma'rupo

Farg'ona vodiysi Uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaliviy tur tarkibi 118

S.Sh.Axmadjonova

Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik xususiyatlari 122

V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev

Tuproq va Indigofera tinctoria L. organlarida og'ir metallarning tarqalish va to'planish xususiyatlari 125

GEOGRAFIYA**M.N.Dehqonboyeva, X.A.Abduvealiyev**

Yer sig'imi tushunchasidan aholi zichligida foydalanish 132

X.Sh.Djo'rabyeva

Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ekologo-gyeografik omillarni ta'siri 137

N.O'.Komilova

Xo'jalik yuritishdagi qadimgi tizimning etnoekologik mohiyati 141

A.A.Xamidov

Farg'ona vodiysining landshaftlarini shakllanishiga litogen tuzilish va rel'efning ta'siri 148

QISHHLOQ XO'JALIGI**Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev, Sh.A.Kuramatova**

"Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari 153

Sh.A.Kuramatova, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev

Kungaboqar o'simligiga qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyati tuproq iqlim sharoitida) 158

Sh.I.Mamatojiyev, M.A.Gaziyev

Sabzavot ekinlari nafaqat oziq – ovqat, balki manzara hamdir 164

M.I.Aktamov, M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda suvdan oson eruvchi ionlar dinamikasi 168

R.Djurayev

Urushdan keyingi yillarda chorva ozuqasi muammosi 172

R.Djurayev

Chorvachilik va uning sovet davlati xalq xo'jaligida tutgan o'mni 177

ILMIY AXBOROT**D.O.Turdaliyev**

Maslenitsa bayrami Slavyan madaniyatida ma'jusiylik va xristian an'analarining aksi sifatida 181



УО'К: 911.3:+913.1

XO'JALIK YURITISHDAGI QADIMGI TIZIMNING ETNOEKOLOGIK MOHIYATI
ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СУЩНОСТИ ДРЕВНЕЙ СИСТЕМЫ ХОЗЯЙСТВОВАНИЯ
ETHNOECOLOGICAL ESSENCE OF THE ANCIENT ECONOMIC SYSTEM

Komilova Nargiza O'rinnovna 

Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasini dotsenti v.b., PhD.

Annotasiya

Ushbu maqolada qadimgi xo'jalik yuritish tizimlarning etnoekologik mohiyati tahlil qilingan. Xususan, inson va tabiat o'tراسىدagi uzviy aloqalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va xalq an'analarining xo'jalik yuritish madaniyatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Qadimgi xo'jalik tizimlari nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki ijtimoiy-ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgani ta'kidlanadi. Maqolada ethnografik ma'lumotlar va tarixiy manbalar asosida xalqlarning hayot tarzi, yerdan foydalanish usullari hamda ekologik tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur tizimlarning zamonaviy ekologik muammolarni hal etishdagi ahamiyati yoritilgan.

Аннотация

В статье анализируется этноэкологическая природа древних систем земледелия. В частности, рассматриваются неразрывные связи человека и природы, рациональное использование природных ресурсов, влияние народных традиций на хозяйственную культуру. Подчеркивается, что древние экономические системы играли важную роль не только в хозяйственной деятельности, но и в обеспечении социально-экологического равновесия. В статье на основе этнографических данных и исторических источников анализируются образ жизни, способы природопользования и экологические принципы народов. Подчеркивается также важность этих систем в решении современных экологических проблем.

Abstract

The article analyzes the ethnoecological nature of ancient agricultural systems. In particular, it examines the inseparable links between man and nature, the rational use of natural resources, and the influence of folk traditions on economic culture. It is emphasized that ancient economic systems played an important role not only in economic activity, but also in ensuring socio-ecological balance. The article analyzes the lifestyle, methods of nature management, and ecological principles of peoples based on ethnographic data and historical sources. It also emphasizes the importance of these systems in solving modern environmental problems.

Kalit so'zlar: Qadimgi xo'jalik tizimlari, etnoekologiya, ekologik madaniyat, tabiiy resurslar, an'anaviy bilimlar, inson va tabiat munosabati, ijtimoiy-ekologik muvozanat, ethnografik tahlil, ekologik tamoyillar, tarixiy manbalar.

Ключевые слова: Древние экономические системы, этноэкология, экологическая культура, природные ресурсы, традиционные знания, взаимоотношения человека и природы, социально-экологическое равновесие, этнографический анализ, экологические принципы, исторические источники.

Key word: Ancient economic systems, ethnoecology, ecological culture, natural resources, traditional knowledge, relationships between man and nature, socio-ecological balance, ethnographic analysis, ecological principles, historical sources.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan Farg'ona vodiysida landshaft qonuniyatlariga mos tushuvchi hamda mahalliy dehqonlar ehtiyojini qondiruvchi yer va suvdan foydalanishning madaniy-etnik ananalarini qadimgi davrlardan boshlab shakllangan. Dehqonchilik sohasidagi turli usul va yo'naliishlar neolit va eneolit davrlarida yaratilgan bo'lib, uzoq tarixiy vaqt davomida takomillashib borgan [1; 2]. Landshaftlarda yuz bergan o'zgarishlarni oldini olish uchun amalga oshirilgan tadbirlarning takomillashib borishi oqibatida ushbu bu mintaqada o'ziga xos tabiiy landshaftmuvozanati shakllanib bordi.

Yuqorida metodologik asoslarga tayanib tahlil qilinganda, mintaqaviy sharoitda etnolandshaftdan foydalanishni birinchi tabiiy-tarixiy turi turi Farg'ona vodiysida XV–XVI asrdan boshlab, shakllandi hamda u XIX asr oxiri va XX asr boshlariga qadar mavjud bo'lgan [8, 10, 5].

Etnolandshaftdan foydalanishning bu turida relyef, iqlim, tuproq xususiyatlari, vodiyning yopiq o'mni hamda aholining milliy-etnik xususiyatlari hisobga olingan. Bu tur, odatda, uzoq tarixiy vaqt davomida shakllanib, unda to'plangan ko'nikma, malaka va tajribalar tabiat bilan uyg'un aloqadorlikka, tabiatga moslashishga asoslanadi. Binobarin, ekologik nuqtai-nazardan qaralganda, bu tur eng mustahkam bo'lib, shu maqsadda tadqiq etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aholi etnoekologik madaniyatining ijtimoiy-geografik jihatlarini tadqiq etish muammolarini o'rGANISHNING nazariy-uslubiy asoslari xorijiy olimlardan J.X.Styuard, X.C.Konklin, MDH mamlakatlari olimlaridan L.S.Berg, P.N.Savitskiy, B.V.Andrianov, V.I.Kozlov, L.N.Gumilev, R.F.Its, S.M.Myagkov, A.G.Drujinin, Y.A.Vedenin, K.B.Klokov, K.P.Ivanov, I.Y.Gladkiy, V.N.Kalutskov, M.V.Ragulina va boshqalarning ishlarida keltirilgan.

Xalqimizning tabiatdan foydalanish an'analarini o'rGANISHNING ijtimoiy-geografik jihatlari A.F.Middendorf, D.N.Qashkarov, H.X.Xasanov, R.U.Rahimbekov, A.A.Rafiqov, A.I.Jabborov, A.A.Ashirov, U.Abdullayev, A.A.Qayumov, R.Balliyeva, A.S.Soliyev, A.N.Nigmatov, F.H.Hikmatov, Y.I.Ahmadaliyev, N.O.Komilova, X.Sh.Jo'rboyeva va boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan.

Farg'ona vodiyini geografik jihatdan tadqiq etish ishlari ancha mukammal darajada amalga oshirilgan. Tabiiy sharoit va resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish masalasiga bag'ishlangan ishlar vodiyning har bir viloyati va tumanlarini qamrab olgan. Biroq, mahalliy aholining tabiatdan foydalanishda ko'p asrlik an'analar, ularning hududiy ijtimoiy-geografik va ekologik jihatlari tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda amalga oshirishda avvalo har bir hududning aholi soni haqidagi, sug'oriladigan yerlar miqdori haqidagi ma'lumotlaridan, shuningdek XIX-XX asrlarda o'lka haqida yeg'ilgan manbalar hamda adabiyorlardan foydalaniladi. Bu ma'lumotlar hududlarning qadimgi madaniyat an'analarini tizimli taxlili o'tkazildi. Bu hisob ishlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining materiallaridan, O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi ma'lumotlari hamda mavzuga oid adabiyotlardan hamda tizimli tahlil, qiyosiy-geografik, statistik kabi usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Farg'ona vodiyisida aholi, xo'jalik va uning tarmoqlari, tabiiy sharoit va resurslar salohiyatidan foydalanishning hududiy jihatlarini o'rGANISH jarayonida hududning geografiyasi, tarixi va boshqa xususiyatlari bo'yicha turli adabiyotlar tahlil qilindi. Farg'ona vodiyida ekologik holatni optimallashtirishga ta'sir ko'rsatadigan yerdan foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish avvalgi tadqiqotlarimizda bayon etilgan [4].

Birinchi etnolandshaft mintaqasi – Farg'ona vodiyidagi Ho'jabaqirg'on, Isfara, So'x, Shohimardonsov, Isfayramsov, Shaxrixonsov daryolari konussimon yoyilmalarning chekka qismlari va konus oralig'i botiqlarini hamda Markaziy Farg'ona cho'l hududlarini egallaydi. Mazkur mintaqaga Qoraqalpoq-Buvayda va Yozyovon-Ulug'nor etnogeografik rayonlari kiradi.

Bu mintaqada tuproq-ekologik holatining salbiy tomonga o'zgarishiga joyning gidrogeologik holati hamda shamol erroziysi ta'sir etishi mumkinligi bugungi kunda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda isbotlandi [7; 56-b.]. Bu yerda, yer osti suvlari ushbu mintaqaga yuqoridaq oqib keladi va ma'lum darajada minerallashadi. Shuning uchun, ushbu hududda tuproqning ekologik holatiga, uning sho'rланishiga qarshi qaratilgan tadbirlar majmuasi yig'ilganligini kuzatish mumkin (1-jadval).

Mazkur mintaqaning tabiiy geografik xususiyatidan kelib chiqib, hududning kam o'zlashtirilganligi kuzatiladi. Yer toifalaridan asosan zahira yerlar (xon va davlatga qarashli o'zlashtirilmagan yerlar) hamda bahorgi va kuzgi yaylov sifatida foydalaniadigan, sug'orilmaydigan yerlar o'rtacha 70 foizgacha maydonni egallagan. Bunday hududlar Yozyovon volostida 54 foiz, Qoraqalpoq volostida 66 foiz, Fayzobod volostida 67,3 foiz, Maxram volostida 83 foiz, Ultarma volostida 86 foizni tashkil etgan [11; 23-b.]. Hududlarda qum barxanlarining ko'chishiga qarshi saksovul, turang'il, jilon jiyda kabi butasimon o'simliklar o'stirilishi xarakterlidir.

Qishloq xo'jaligi yerlari tarkibida asosan kuzgi va qishki yaylov sifatida foydalaniqan yerlar ko'p. Ekin maydonlarida sho'rga chidamli ekinlar, konus oraliq botiqlarida sholi ko'p ekilgan. Mintaqada daraxt va buta o'simliklaridan saksovul, chinnigul, jiyda, sho'ra, turang'i kabi mayda bargli daraxtlar va efemer o'simliklar keng tarqalgan [8; 440-b.]

GEOGRAFIYA

Ekin maydonlarini tarkibini tahlil qilinsa, bu mintaqaga uchun sho'rga chidamli ekinlardan oq jo'gori (Sorghum cernuum), sholining uch turi oq sholi, arpa sholi va qizil sholi ko'p eklilib, yerni sho'rini yuvish orqali madaniylashtirilgan. Hududda poliz ekinlarini, ayniqsa qovun yetishtirishda nihoyatda yuqori natijalarga erishilganligi ko'p adabiyotlarda keltirilgan. Hududda aholining kundalik iste'molida iyul oyidan to oktabr oyigacha qovun asosiy ovqat hisoblangan va ekin maydonlari tarkibida donli ekinlardan keyingi o'rinni egallagan. Sug'oriladigan yerlar ulushi boshqa mintaqalardan sezilarli darajada kam, Yangiqo'rg'on, Buvayda, Qoraqalpoq volostlarida 5-25 foizni tashkil etadi [12; 131-b.]. Balandlik mintaqasi nafaqat qishloq xo'jaligi yerlarini o'zlashtirishga balki, sug'oriladigan ekinlar tarkibiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqa toponomlari hududda bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi ekologik xavf-xatardan vayerdan foydalanishni qiyinlashtiruvchi omillar haqida batafsil ma'lumot berib, ekologik darakchilik vazifasini o'taydi.

1. Mintaqaning tabiiy sharoiti xaqida darak beruvchi qum bilan bog'liq nomlar ko'p uchraydi; Jumladan, Bo'riqum (Dang'ara t.), Oqqum (Mingbuloq t.), Qoraqum (Buvayda t.) Qum (Yozyovon, Buvayda, Shahrixon, Uchko'prik tumanlarida), Qumbosti (Uchko'prik t.), Qumqishloq (Besariq, Dang'ara, Qo'shtepa, Toshlaq tumanlarida), Qumtepa (Qo'shtepa, Bاليقchi tumanlarida), Qumqiyali (Dang'ara t.) Qummozor (Buvayda t.). Bu nomlar aholi maskanlarida qumli tuproqlar hududning o'zlashtirishni qiyinlashtiruvchi omil ekanligidan darak bergen.

2. Gidrogeologik sharoit haqida ma'lumot beruvchi nomlarga; Sho'r qishlog'i (Buvayda, Uchko'prik, Furqat, Bاليقchi tumanlarida) Sho'rsuv, Sho'rtepa (Buvayda tumanida)kabi nomlarni kiritish mumkin. Yuqoridaq tuproq-ekologik sharoitda o'sadigan o'simliklar haqida ham topominlar tahlilidan ma'lumot olish mumkin. Jumladan, Jylda, Jyldali (Dang'ara t.), Jydaqishloq (Mingbuloq t.), Qorajyda (Qo'shtepa t.) Chorbog'turong'i (Besariq t.) kabi.

1-jadval

Farg'ona vodiysining etnogeografik mintaqalarida yerdan foydalanish ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlari	Etnogeografik mintaqalar			
		I	II	III	IV
1.	Keng tarqalgan yer toifalari	Zahira yerlar, qishloq xo'jaligi yerlari (yaylovlari)	Qishloq xo'jaligi yerlari, aholi manzilgohlari, tabiatni muhofaza qilish va rekreatsiya, tarixiy -madaniy obyekt yerlari	Qishloq xo'jaligi yerlari, aholi manzilgohlari, tabiatni muhofaza qilish va rekreatsiya, tarixiy madaniy obyekt yerlari	Tabiatni muhofaza qilish, reakreatsiya maqsadidagi yerlar, suv fondi yerlari, o'mon fondi, zaxira yerlar,
2.	Qishloq xo'jaligi yer turlari	Yaylovlari, ekin yerlar	Ekin yerlari, tomorqalar, mevali daraxtzorlar	Ekin yerlari, lalmi yerlari, mevali daraxtzorlar, tomorqalar	Yaylovlari, tog'-o'mon bog'dorchiligi yerlari
3.	Asosiy ekin turlari	Jo'xori, sholi, poliz va boshqa sho'rga chidamli ekinlar	Donli, moyli va yem-xashak ekinlari, mevali bog'lar	Mevali bog'lar, poliz ekinlari, donli ekinlar	Yem-xashak va poliz ekinlari, ildiz mevali ekinlar, sabzi, kartoshka va b.
4.	Asosiy daraxt va buta turlari	Jylda, jilon jylda, turong'il, saksovul, sho'ra	Shaftoli, o'rik, olma, gilos, uzum, behi, g'aynoli, tut, tol	O'rik, olma, nok, anor, shaftoli, bodom, olxo'ri, jylda, anjir, yong'oq, chonor, tol, terak	Olma, tog' olcha, pista, bodom, do'lana, namatak, zirk, dukcho'p, archa, terak, qayrag'och
5.	Sug'oriladigan yerlari hisobida (%)	20-30	40-50	30-40	00,8-1

Manba: [2]

Ikkinci etnogeografik mintaqasi. Vodiylagi daryo va soylarning konussimon yoyilmasining markaziy qismini egallab, dengiz sathidan balandligi 400-600 m atrofidagi qiya tekislik relyefiga ega. Iqlim ko'rsatkichlari dehqonchilik qilish uchun qulay [6; 143-b.]. Bu mintaqaga Qo'qon, Beshariq-Yaypan, Rishton-Bog'dod, Marg'ilon, Quva-Shaxixon, Andijon, Izbosgan-Uchqo'rg'on va Namangan etnoekologik rayonlari kiritiladi.

Tuproq-ekologik sharoitga ko'ra bu mintaqasi eng qulay hisoblanib, bo'z tuproqlar mintaqasining unumdon o'tloqi, o'tloqi-voha tuproqlari tarqalgan, unumdonligi yuqori bo'lganligi sababli bu hududlar to'la o'zlashtirilgan. Vodiyning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan hududi hisoblanadi.

Yer toifalaridan asosan qishloq xo'jaligi yerlari, aholi manzilgohlari, tabiatni muhofaza qilish va rekreatsiya, tarixiy madaniy obyekt yerlari ko'p maydonni egallaydi. Hududning asosiy qismidan intensiv foydalaniladi, bu o'z navbatidahududga tushadigan antropogen bosim miqdorining ortib ketishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun yirik shaharlar va ularning mahallalarida «ekologik sokinlik hududlari» - ziyoratgoh, qadamjo, maqbara, mozorlar kabi ekologik ahamiyatga molik yerlar maydoni ancha katta. Misol uchun «ekologik sokinlik hududlari» hisoblangan muqaddas qadamjo va ziyoratgoxlar XX asr boshlarida Qo'qonda 25 ta, Marg'ilonda 30 ta, Andijon shahri va uni atrofida 35 ta, o'rganilayotgan davrda Namanganda 60 ga yaqin bo'lganligi qayd etiladi [13; 23-b.].

Mintaqada qishloq xo'jalik yerlaridan sug'oriladigan ekin yerlar, tomorqa yerlari va mevali daraxt-zorlar sifatida foydalaniladigan maydonlar ulushi katta. Sug'oriladigan ekin yerlar miqdori Norin volostida 66 foiz, Asaka volostida 67 foiz, Segaza volostida 73 foiz, Oltinko'l volostida 75 foiz, Quva volostida 80 foiz, Xaqqulobod volostlarida 80 foizni tashkil etgan. O'rtacha bu etnolandshaft mintaqadagi sug'oriladigan yerlar miqdori 40-60 foizni tashkil etgan. Mintaqada butun vodiylagi dehqonchilik eng rivojlangan hudud hisoblanib, ekin maydonlarining tarkibida donli, moyli, tolali va yem-xashak ekinlari ko'p ekiladi. Donli ekinlarning kamsuvatalab, ertapishar navlari ko'proq ekilgan, ulardan butun vegetatsiya davrida bir yoki ikki marta sug'oriladigan mosh, tariq, javdar, qo'nog, kuzgi bug'doy kabi ekinlar tanlab olingen. Moyli ekinlardan kunjut, paxta, zig'ir, raps, maxsar, ko'knori, kungaboqar, kanop, yem-hashak ekinlaridan makkajo'xori, beda, arpa ko'p maydonlarni egallagan.

Bu mintaqada yerdan foydalanishda tuproq unumdonligini saqlashga qaratilgan al mashlab ekish va yerni o'g'itlashdagi etnoekologik madaniyat namunalari diqqatga sazovor. Mintaqada qadimdan zahirada o'zlashtirish uchun yer va kerakli miqdorda suv resurslari ushlab turilgan. Dehqonchilik yaylov chorvachiligi, hunarmandchilik va rivojlangan savdogarlik faoliyati bilan birgalikda olib borilgan. Qishloq xo'jaligida ishlatalish mumkin bo'lgan yerlarning 40-50 foizigagina ishlov berilgan, qolgan yerlar esa almashlab ekish tizimi bo'yicha bo'z, qo'riq yer sifatida qoldirilgan. Mahalliy dehqonlar shu yo'l bilan tuproq unumdonligini bir xilda saqlab kelganlar. Bu haqda Farg'ona viloyati bo'yicha qilingan hisobotda Rossiyalik agronom shunday yozadi: «...hisobot yilida mahalliy aholi uchun ajratilgan yaroqli yerlarning 41,04 foizigagina ishlov berildi, qolgan 476,786 botmon (1 botmon- bir gektarga yaqin maydon -N.K.) miqdordagi yaroqli yer esa ishlovsiz qoldi. Bunday holatning sababini tushuntirish qiyin». Dehqonchilikning mahalliy sharoitini yaxshi bilmagan, yerdan foydalanishda faqatgina ko'proq va tezroq foyda olishni o'ylagan agronom uchun tushunarsiz ko'ringan bu holatning sababini ota-bobolarining ko'p asrlik tajribasiga suyangan mahalliy dehqonlar yaxshi bilganlar.

Yerlarni o'g'itlashda «yerdan necha arava beda olsang, shuncha go'ng solish zarur» degan naqlga amal qilish orqali ekin yerlarning oriqlashi, tuproq unumdonligining pastlashiga yo'l qo'yilmagan [3; 44-b.].

Bu mintaqada toponomiyasida yerga egalik huquqini beruvchi, undan ehtiyyotkorlik bilan, unumdonligini saqlagan holda foydalanish majburiyatini yuklovchi, «chek» termini qo'shilgan nomlar, hamda antropotoponim va etnotoponimlar keng tarqalgan. Misol uchun, Jumaboychek (O'zbekiston t.), Qaqirchek (Beshariq t.), Ko'tarmachech (Oltinko'l t.), Eshonchek (Baliqchi t.), Yuqori Mirzaobod (Bog'dod t.), Nayman (Andijon t., Pop t., Quva t.), Do'rmon (Asaka, Qo'shstepe t.) kabilarni keltirish mumkin.

GEOGRAFIYA

Uchinchchi etnogeografik mintaqasi. Farg'ona vodiysidagi So'x, Isfara, Shohimardonsov, Isfayramsov, Aravon, Oqbuyra, Kosonsoy konussimon yoyilmasining yuqori qismlarini egallaydi. Balandligi 700 m dan boshlanadigan to'lqinsimon relyefga ega bo'lgan tekisliklar va adir oralig'i botiqlari mazkur mintaqaning asosini tashkil etadi. Tabiiy o'zanlar bilan bo'lingan ushbu mintaqada Vodil-Quvasoy, Mingtepa-Xo'jaobod, Oyim-Qorasuv, Chust-Pop, Koson-Chortoq etnoekologik rayonlari joylashgan.

L.N.Babushkin (1985) ma'lumotlariga ko'ra, mazkur mintaqada yillik o'rtacha havo harorati birinchi va ikkinchi mintaqaga qaraganda 2,0-4,00S ga pastroq bo'lib, yog'in miqdori vodiyning markaziy qismlarida 20-30 mm ko'pligi bilan xarakterlanadi. Bu yerda yer osti suvlarining 95 foizi shakllanadi, suvlik qatlamning qaliligi 20-50 metrni tashkil etadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tabiiy landshaft xususiyatlari ta'sirida sug'oriladigan yerlar maydoni 35 foiz atrofida bo'lgan [104; 44-b.]. Yer toifalari orasida qishloq xo'jaligi yerlaridan tashqari aholi maskanlari yerkari, suv fondi yerkari ko'pchilikni tashkil etadi. So'x daryosi sug'orish tizimining har ikki Sarqo'rg'on va Qo'qon gidrouzellari, Shohimardonsov daryosining Vodil, Isfayram daryosining Besholish, Aravon daryosining Aravon, Oqbo'yra daryosining O'rnatog', Qoradaryoning O'zgan, Bozorqo'rg'on, Norin daryosining Uchqo'rg'on, Podshootasoyning Zarkent gidrouzellari mazkur mintaqaga joylashgan. Bu o'z navbatida vodiyning tekislik hududlarini suv bilan ta'minlashdagi mintaqaning o'mi va ahamiyatini belgilab beradi.

Qishloq xo'jaligi yerkari ko'proq bog'dorchilik va uzumchilik uchun ajratilgan. Mahalliy dehqonlar yerdan foydalanishning bu usuli orqali konussimon yoyilmalarning quyi qismlarida yer osti suvlar sathining ko'tarilib ketishiga va tuproq shorlashuviga yo'l qo'ymasdan ekologik muvozanatni saqlaganlar. Kam suv talab qiladigan danakli bog'lar ko'pligi bilan ajralib turgan. Isfara, Konibodom, Sho'rsuv, Rishton, Quvasoy, Yangiqo'rg'on, Chortoq, Kosonsoy, Buloqboshi hududlarida o'rik, bodom, yong'oq daraxtlari ko'p ekiladi. Namangan hududida esa olma, nok, olxo'n, g'aynoli keng tarqalgan. Chust tumanining Olmos qishlog'ida yetishtirilgan olmaning dovrug'i Markaziy Osiyoga tanilgan. Bu esa, yuqorida aytiganidek, tabiiy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish va quyi mintaqada yer osti suvlarining sathi o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik uchun zamin yaratgan. A.F.Middendorf (1882) hozirda faqatgina to'rtinchchi mintaqadagi tog'larda uchraydigan bodom va tog' pistalarini adirlar mintaqasiga qadar tushib kelganligi haqida rasmlar bilan asoslangan ma'lumotni keltiradi [9; 124-b.].

Mintaqa uchun ekologik jihatdan xos va mos bo'lgan mevali daraxtlar turini aniqlashda joy nomlaridan foydalanish mumkin. Mintaqada o'rik, shaftoli, olma, anjir, anor daraxtlarining keng tarqalganligini asoslovchi joy nomlari uchraydi. Jumladan, O'rikzor (Farg'ona, Namangan, Kosonsoy, Chortoq tumanlari), Shaftoli (Uychi tuman), Shaftolizor, Olma (Namangan tuman), Olmazor (Jalaqudud, Kosonsoy, Yangiqurg'on tumanlari), Olma-bel (Chust tuman shimoli), Anjirzor (Namangan tuman), Anorzor (Quva, Izboskan tumanlari) kabilar.

To'rtinchchi etnogeografik mintaqasi Oloy, Turkiston, Farg'ona, Qurama, Chotqol tizmalari va adirlari hududini o'z ichiga oladi.

Bu yerda tik qoyali relyef shakllari chuqur vodiylar bilan almashinib keladi. Yerdan dehqonchilikda foydalanish shu vodiylarda qisman yo'lga qo'yiladi, boshqa hududlar esa chorvachilik va tog' bog'dorchiligidagi ajratiladi. Mintaqada So'x-Shohimardon, Chodak-Chorkesar etnoekologik rayonlari joylashgan.

Hudud iqlimining shakllanishida balandlik ko'rsatkichi asosiy ahamiyatga ega. Havo xarorati va yog'in miqdori vodiyning tekislik qisminidan keskin farq qilib, yoz oylarining qisqaligi va yog'inning ko'pligi bilan tafsiflanadi. Tog'li vodiylarda (So'x, Shohimardon, Obshir, Arslonbob, Chodak, Chorkesar) 1300-1500 balandlikda yog'in miqdori 350-400 mm atrofida bo'ladi. Bu holat hududda lalmikor dehqonchilikni rivojlantirish imkonini beradi, kartoshka, kuzgi bug'doy va daryo vodiylarida sholi yetishtiriladi. Iqlimning bu xususiyati hududdan asosiy chorvachilik yaylovi sifatida foydalanishga zamin yaratgan.

Ushbu mintaqada vodiyning rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lgan suv resurslari shakllanadi. Xo'jabaqirg'on, Isfara, So'x, Shohimardon, Isfayram, Aravon, Oqbo'ra, Qoradaryo, Norin, Podshootasoy, G'ovasoy, Chortoqsoy, Chodaksoy kabi Farg'ona vodiysini suv bilan ta'minlovchi asosiy daryolar mazkur mintaqadan boshlanadi. Daryolar to'yinish tipiga qarab, may-iyun yoki iyul-avgust oylarida to'lib oqib, o'zidan quyida turuvchi mintaqalarni suv bilan ta'minlaydi.

Mintaqaning bu xususiyati u yerning qattiq muhofazaga olinadigan hududlarga aylanishiga sabab bo'lgan.

Yerdan foydalanishda hududning vodiyni suv bilan ta'minlashdagi gidrogeologik holati hisobga olingan. Tog' bilan tekislik o'tasidagi o'zaro bog'liqlik, modda va energiya almashinuvi jarayoni, ya'ni «tog'-tekislik» geojuftligi yoki paragenetik majmualar yerdan foydalanishning tabiiy-tarixiy tipida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Vodiyning tekislik hududlari o'zlashtirilishi bilan daryo yo'nalishi bo'yicha aloqalar tiklangan, tog' qishloqlari va tekislik hududidagi aholi o'tasida o'ziga xos mehnat taqsimoti va mol ayriboshlash yo'lga qo'yilgan. Ma'muriy bo'linishda ham o'zgarish bo'lgan, ya'ni butun So'x daryosi tizimida yagona boshqaruvo yilga qo'yilgan.

Tog'li hududlarda yashovchi aholiga, ushbu hududning daryo suvi miqdori va rejimi ni saqlash funksiyasi yuklatilgan. Hududning asosiy qismi yaylov bo'lib, masalan, So'x etnoekologik rayonining atigi 0,8 foizi sug'orib dehqonchilik qilishga ajratilgan.

Suv eroziyasiga yo'l qo'ymaslik maqsadida daryo vodiylarida sholi, boshqa hududlarda kuzgi bug'doy, kartoshka, sabzi kabi ildiz mevali ekinlar va 80 turdag'i daraxtlar ekilgan. Boshqa mahsulotlar xalq ehtiyojini qondirish uchun tekislikdan keltirilgan. So'x, Chorku, Olmos, Chodak, Novqat qishloqlarida dushanba, chorshanba, payshanba kunlari, ishlovchi 70 ta savdo rastasiga ega bo'lgan, chorva bilan ham savdo o'tkaziladigan bozor bo'lgan.

Oloy, Turkiston, Qurama, Chotqol tizmalarining vodiyni suv bilan ta'minlashdagi ekologik funksiyasi o'sha davrlardan boshlab tushunib kelingan. Bu hududlarda ham o'ziga xos «qo'riqxona»lar davlat va mahalliy aholi tomonidan tashkil etilgan.

Sug'orish tizimining rivojlanishi bilan arab geograflari va V.Nalivkin (1886) asarlarida aytilgan, adirlar zonasigacha tushib kelgan «O'rmon-bog'lar»ning maydoni keskin qisqara borgan. Aholi sonining ortib, dehqonchilik maydonlarining kengayishi kuzatilgan, jamoa mulki bo'lgan hududlarda daraxtlar ko'plab kesilgan. Oqibatda VIII-IX asrlarda daryo rejimining o'zgarishi, suv toshqinlari ko'plab kuzatilgan. O'z-o'zidan kishilar bu salbiy jarayonlarning sababini o'rganganlar va unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni qidira boshlaganlar. Birinchi navbatda tabiatning buzilgan unsurlarini, ya'ni o'rmonlarni tiklashga harakat qilingan. O'z o'lkasining gullab yashnashini o'yagan hukmdorlar esa avvalo, tog'li hududlar tabiatini asrab «qo'riqxonalar» tashkil etgan deya xulosa qilish mumkin. Bunday o'ziga xos «qo'riqxona»lar, muqaddas ziyyoratgohlar va qadamjolar ko'rinishida vodiyyadagi eng ko'p ziyyoratchilarni o'ziga chorlashi bilan ajralib turgan. Bu esa o'z navbatida butun vodiyya suv ta'minotini yaxshilab, etnoekologik muvozanatni saqlashga yordam bergen.

XULOSA

Yuqorida tahlildan ko'rinib turibdiki, yerdan foydalanishning har uchta turi ya'ni, hududning xalq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha taqsimlashda (yer toifalari), qishloq xo'jalik yerlari (yer turlari) va ekin maydonlar tarkibini shakllantirishda mintaqaning landshaft-ekologik xususiyatlari, aholining mehnat va tabiatdan foydalanish malakalari to'liq e'tiborga olingan. Bu xolat hududda ekologik muvozanatni saqlab, aholi turmush farovonligini ta'minlab turishga yordam bergen.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Абдуллаев У., Валихонова Г. Фарғона водийси аҳолиси: Этник таркибининг шаклланиши ва этномаданий муносабатлар тарихи. Т.: Navroz, 2016. 252 б.
- Абдулхамидов А. Из истории орошения Кокандского оазиса.- Т.: Фан, 1974. - 105 с.
- Абдулхамидов А. Орошения в предгорьях Узбекистана.- Т.: Фан, 1990. - 176 с.
- Аҳмадалиев Ю., Комилова Н. Этноэкологик маданиятнинг худудий жиҳатлари. Монография, "SuperPrint". 2020 й. 220 б.
- Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. Т.: "Фан ва технологиялар" нашриёти, 2014. - 340 б.
- Бабушкин Л.Н., Когай И.А., Закиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана. -Т.: Мехнат, 1985. -160 с.
- Максудов А. Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долины под антропогенным воздействием. - Т.: Фан, 1990. - 92с.
- Масальский В. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том. XIX. Туркестанский край. СПб.- книгоиздательства А.Ф. Девриненъ, 1913. - 864 с.
- Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. (перевод с нем.) СПб., Изд. Императорский Академии наук, 1882. - 498с.

GEOGRAFIYA

10. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казан, 1876.- 216с.; Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Новый Маргилан.: 1980. -210 с.
11. Обзор Ферганской области за 1887 г., -Новый Маргилан: Типография Ферг. Обл.правления. 1889 г. - С.3-48.
12. Солодянкина С. В. Ландшафтно-экологическое планирование для оптимизации природопользования: учеб. пособие/ С.В.Солодянкина, М.В.Левашёва. – Иркутск: Изд-во ИГУ, 2013. – 170 с.
13. Эралиев Б. Ўзбекистон зиёраттоҳлари ва қадамжолари; Фарғона вилояти / Б.Эралиев, И.Остонакулов, Н.Абдулаҳатов. –Т.: "Turon Zamin Ziyo", 2014.–324 б.